



BOSHLANG'ICH SINFLARDA BADIY ASARNI TAHLIL QILISH USTIDA ISHLASH

Tursunova Enaxon G'ayratjonovna

Toshkent shahar Bektemir tumani 348 - maktab boshlang'ich sinf o'qituvchisi

Annotatsiya.: *Ushbu maqolada boshlang'ich sinflarda badiiy asar ustida ishlash, uni tahlil qilish yo'llari va ahamiyati to'grisida fikr yuritiladi. Boshlang'ich sinf o'quvchilarida badiiy asar orqali tahlil malakasini shakllantirish va takomillashtirish usullari asosida darsni tashkil etish jarayoni tushuntirib o'tiladi.*

Kalit so'zlar: *badiiy adabiyot, so'z boyligi, dunyoqarash, uzluksiz ta'li*

O'zbekiston Respublikasi amalga oshirilayotgan islohotlar jamiyatimiz taraqqiyotini ta'minlash ta'lim tizimini takomillashtirish shuningdek, mustaqil fikr yurituvchi dunyoqarashi keng ma'nani boy shaxsni tarbiyalab voyaga yetkazishni talab etmoqda. Bu borada Pirizdentimiz Shavkat Miromonovich Mirziyoyev "Yangi O'zbekistonda erkin va farovon yashaylik" nomli asarida: "Agar katta avlodning bilimi va tajribasini , uzoqni ko'ra olish fazilatlarini yoshlarimizdagi g'ayrat- shijoat, mardlik va fidoyilik bilan birlashtira olsak ko'zlangan maqsadga albatta yetamiz" - degan fikrlarni aytib o'tgan. Shu boisdan yurtimizda ta'lim tizimida juda ko'p o'rgarishlar qilinmoqda.. Yoshlarimizning bilim olishi uchun keng imkoniyatlar yaratib berilmoqda. O'zbekistonda ta'lim jarayoni ko'p bosqichli yaxlit tizimga ega bo'lib, uni har bir bosqichi ta'lim oluvchilarning yosh hamda o'ziga xoz xususiyatini inobatga olib ta'limni izchil va tizimli uzviy amalga oshirishiga bog'liq hisoblanadi. Ana shu ta'lim berish jarayonida boshlang'ich sinflarda o'quvchilarga badiiy asarlarni o'qish ulardan ibrat –namuna olishni o'rgatish ham katta ahamiyatga ega . Badiiy matnda so'zning shunchaki ishtirok etmasligini anglab yetish – badiiy asr tili tahlilidagi eng muhim nuqtalardan biridir[1].

Yangi kishini shakllantirishda g'oyaviy, axloqiy, nafosat ta'sir kuchini o'zida mujassamlashtirgan badiiy asarga xos tasviri vositalar, o'ziga xos xususiyatlar o'quvchiga tushunarli bo'lgan taqdirdagina uning tarbiyaviy ahamiyati, ta'sir kuchi to'liq namoyon bo'ladi. Buning uchun esa badiiy asar tilini lisoniy tahlil qilmasdan turib, ko'zlangan maqsadga erishish qiyin[2].

Badiiy asarni tahlil qilishda o'quvchilar asarda qatnashuvchi shaxslarga baho berishda o'zinig shaxsiy va axloqiy tushunchalaridan foydalanadi.Ular axloqiy sifatlardan botirlik, to'g'rilik, mehnatsevarlik yaxshilik tushunchalarini anglab yetganlar va ko'p ishlatajilar. Qahromonlarning boshqa sifatlarini tasvirlash uchun ularning so'z boyligi yetishmaydi. Bu jarayonda o'qituvchi o'quvchilar bilan asar matnnini tahlil qilib, ular nutqiga personajlarning axloqiy intellektual, emotsiyonal sifatlarini tasvirlovchi so'zlarni krita boradi.

Badiiy asar qahromonlarning xarakterini yaxshi yoritish uchun xizmat qiladi.Bu asar quyidagi muhim qoidalar asosida tahlil qilinadi:





1. Asar mazmunini tahlil qilish va to'g'ri, tez, ongli, ifodali o'qish malakalarini shakllantirish bir jarayonda boradi.

2. Asarning g'oyaviy-tematik asoslarini uning obrazlari,syujet chizig'i, kompozitsiyasi va tasviriy vositalarni tushuntirish o'quvchilarning shaxs sifatida umumiy kamol topishida yaxshi xizmat qiladi.

3. O'quvchilarning hayotiy tajribasiniga tayanish,asar mazmuninni ongli idrok etishning asosi va uni tahlil qilishning zaruriy sharti hisoblanadi.

4. Sinfda o'qishga o'quvchilarning bilish faoliyatini faollashtirish va atrof-muhit haqidagi bilimlarini kengaytirish hamda ilmiy dunyoqarash elementlarini shakllantirishdan iborat.

Matnni tahlil qilish o'quvchida fikr qo'zg'atishi, hayotiy tajribasining muallif qayd etgan ma'lumotlarga to'g'ri kelish-kelmasligini aniqlash zarur.

Boshlang'ich sinflarda badiiy asar turlaridan hikoya, she'r, ertak, masal, maqol va topishmoqlar amaliy ravishda o'rganilaadi. Shunga ko'ra turli janrdagi badiiy asarlarni o'qishda o'qituvchi unga mos metodlar tanlanadi. Boshlang'ich sinflarda o'quvchilarning dunyoqarashini kengaytirish maqsadida ertaklar berilgan. Ertak-insonning ma'naviy va jismoniy kuchiga ishonch ruhi bilan to'lib-toshgan. U insonga butun real va tabiatdan tashqari kuchlarning bo'ysunganini ifodalaydi. Ertaklar sodda va anglasharli bo'lgani uchun katta va kichikda, savodli va savodsiz kishiga tez yetib boradi. Ular orqali ham insonning ijtimoiy axloq normalari shakllanadi. Ba'zan bu axloqiy normalar masal tarzida, allegorik ravishda ifodalanib kelgan. Bu hol, ayniqsa, hayvonlar haqidagi ertaklarda aks etgan.Ertakning o'tkir syujeti, voqeа rivojidagi favqulodda vaziyat bolalarni maftun qiladi; undagi mard, kuchli, topqir,dovyurak chaqqon qahramonlar, ertakning g'oyaviy yo'nalishi, unda ezgu kuchning-yaxshilikning doimo g'alaba qilishi bolalarni o'ziga tortadi. Ertakdagi bir xil so'zlarning qayta-qayta takrorlanib turishi, ohangdorligi,tilning ta'sirchanligi,ifoadali vositalarning jonliligi bolalar uchun juda qiziqarlidir.Ertakda qatnashuvchilar ko'pincha rahmdil, saxiy, adolatli hamda ularning aksi bo'lgan yovuz, baxil, ochko'z obrazlarga bo'linadi.

Shuningdek, boshlang'ich sind darsliklarida o'quvchilar dunyoqarashini kengaytirish maqsadida hikoya janridagi asarlar ham berilgan.Hikoya-kichik hajmli badiiy asar bo'lib, unda kishi hayotidagi ma'lum bir voqeа hayotning muhim tomonlarini umumlashtirib tasvirlanadi. Hikoya ko'pincha kishi hayotida sodir bo'lgan bir epizodni tasvir etadi. Uning mazmuni ertaklarga nisbatan hayotiy bo'ladi. Hikoya mazmuni boshlang'ich sind o'quvchilari uchun mos janr hisoblanadi. Kichik yoshdagи o'quvchilarni qahramonning xatti-harakati,tashqi ko'rinishi, portret tasviri, voqeа-hodisalar haqidagi hikoyalari ko'proq qiziqtiradi. Shuning uchun bolalarni hikoya bilan tanishtirish uning syujetini tushuntirish uning syujetini tushuntirishga bog'lab olib boriladi. Boshlang'ich sinflarda hikoyani o'qishga bag'ishlangan darslarda, hikoya mazmunini ochishda, lug'at ustida ishslash o'qilgan matnni qayta hikoyalash asosiy o'rinni egallaydi. Hikoya savollar asosida tahlil qilinadi. Bunda savollar hikoyadagi shaxslarning xatti-harakati va xarakterini tahlil qilishga yordam beradi.Hikoya





mazmunini tahlil qilishda faktlar, mulohazalar, xulosalarni taqqoslash, voqeа-hodisalar o'rtasidagi umumlashtirish uchun foydalaniladi. Hikoyani o'qish jarayonida ma'nosini tushunmaydigan so'z va iboralarning ma'nosini tushuntirish lozim bo'ladi. Hikoyani o'qishda uni tahlil qilishda o'quvchilarning nutqini o'stirish markaziy o'rinni egallaydi. Hikoya o'qilgach, savollar orqali hikoya bolalarga yoqqan-yoqmayaotganini hikoyadagi qaysi qahramonning xarakteri bolaga ta'sir etgani, qahramonning ijobjiy va salbiy xarakterlari haqida fikrlaydi. Shundan so'ng hikoya syujeti, voqeanning yo'nalishini tushunishga nihoyat asarning g'oyasini bilib olishga muvaffaq bo'ladi.

Boshlang'ich sinflarda turli xil mazmundagi hikoyalar berilgan shulardan Oybekning "Mehnatkash qiz" hikoyasi haqida fikr yuritadigan bo'lsak, dastlab hikoya o'quvchilarga ifodali o'qib beriladi. So'ng matn yuzasidan o'quvchilarga savollar beriladi:

- 1.Unsin qandey xarakterga ega?
- 2.Unsin qanday yumushlarni bajaradi ?
- 3.Shokir ota qaysi hunar bilan shug'ullanadi ?
- 4.Unsinni mehnatkashligi tasvirlangan qismlarni topib o'qing.
- 5.Unsinni qaysi xislatlari sizga yoqdi ?
- 6.Siz ham uy yumushlarda ota-onangizga yordamlashasizmi?

O'quvchilar yuqoridagi savollarga javob berishi orqali hikoyadagi qahramonlarning xatti-harakatlari, har bir epizodning ijobjiy yoki salbiy xususiyatlari haqida fikr yuritadi. Asardagi voqeа sujet rivoji ochiladi. Shuningdek asar orqali o'quvchilarga tarbiyaviy jihatlarni ham singdiramiz. Ya'ni, Unsin kabi mehnatkash, doimo mehribon bo'lishi, ota-onasiga yordam berish lozim kabi jihatlari aytib o'tiladi [3].

Boshlang'ich sinf darsliklarida maqollar ham ko'p qo'llaniladi. Maqol turmush tajribalari zaminida tug'ilgan va xalq donoligini ifodalagan qisqa, ko'pincha she'riy shakldagi hikmatli so'zlar, chuqur ma'noli iboralardir. Maqol xilma-xil mavzularda bo'lib, hayotning turli masalalarni qamrab oladi. Ko'pincha maqol o'git, nasihat xarakterida bo'ladi; "Yer haydasang -kuz hayda , kuz haydamasang yuz hayda" kabi.

Maqol xalq og'zaki ijodining juda qadimiш shakllaridan biri bo'lib, unda xilma-xil badiiy ifoda vositalari ohangdor tovushlar takrori bo'ladi. Savod o'rgatish davridayoq o'quvchilar maqollarni o'qiydilar. Alifbe davrida berilgan maqollar matn mazmuni bilan bog'liq bo'lib, ular matn g'oyasini o'quvchilarga lo'nda, aniq yetkazish uchun xizmat qiladi.

1-2-sinflarda maqolni ifodali o'qish va yod olishga ahamiyat beriladi. Bu sinflarda maqolning mazmunini o'rganish va yod olishlaridan tashqari, uning matnidagi izohtalab so'zlar, birikmalar ustida lug'at ishi o'tkazish, badiiy til vositalari, ko'chma ma'noli, qarama-qarshi ma'no bildiruvchi, maqolda takrorlanib kelayotgan so'zlar ma'nosi yuzasidan ish olib borish talab etiladi.

3-4-sinflarning "O'qish kitobi"da" Xalq og'zaki ijodi"bo'limi tarkibida "Maqollar" mavzusi alohida olingan. Bu mavzuni o'rganishda maqolning kelib chiqishi, yaratilishi





haqida dastlabki elementar ma'lumotlar beriladi. Bunda maqollar xalqning uzoq yillik hayotiy tajribasi asosida vujudga kelganligi to'g'risida ma'lumotlar beriladi. 4-sinf "O'qish kitobi"da maqollar "Ona yurting-oltin beshigin", "Eldan ayrilguncha, jondan ayril", "Mehnat-baxt keltirar" kabi mavzular asosida berilgan. Ushbu maqollar mazmuniga mos asarlar keltirilib, uning mazmun - g'oyasini maqol bilan bog'lab o'rgatiladi. Bu jarayonda o'quvchilarning hayotiy tajribalari asosida misollar keltirish orqali maqollarni izohlash yoki o'quvchilarga maqol g'oyasiga mos birorta hikoya tuzish topshirig'i beriladi.

3-4- sinflarda maqol janri bo'yicha tahliliy ishlari o'quv yili davomida izchil uyishtirib boriladi, ya'ni "Asar g'oyasiga oid maqol ayting", "Maqollar asosida boshqotirma tuzing, rebus yarating" kabi topshiriqlar beriladi, "Maqollar aytish musaboqasi", "Maqollar mushoirasi" kabilalar tashkil qilinadi. Shu tariqa boshlang'ich sinflarda badiiy asarlar ustida tahlil ishlari olib boriladi [4].

Biror matnni o'qish va tahlil qilish orqali bolada mustaqil fikrlash qobilyati o'sadi, unung nutqi rivojlanadi, aqliy darajasi ortadi. O'quvchilarni badiiy asar ustida ishslashga o'rgatish ularda adabiy- estetik tahlil malakasini shakillantirish va o'stirish orqali ta'lim tarbiya berishni nazarda tutadi. Asarning matnnini tahlil qilish muallifning fikrni, hissiyoti va xulosalarini tushinshga yordam beradi. Asarda ifoda etilgan voqealarga munosabat uyg'otadi . Asar tahlili o'qtuvchidan o'quvchilar faoliyatini ma'lum maqsadga yo'naltirishni taqozo etadi .

Maktabda badiiy asarni tahlil qilishdan asosiy maqsad, asarda ifodalangan hayotiy voqeani yoritish orqali o'quvchilarni badiiy adabiyot olamiga olib kirish, tasvirlanayotgan voqealarga nisbatan muallifning munosabati va niyatlarini payqab olishga imkoniyat yaratadi.

FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR:

- 1.Sh. M. Mirziyoyev "Yangi O'zbekistonda erkin va farovon yashaylik" Toshkent-2021.B.102
2. Siddiqova Sh. "Fan, ta'lim va amaliyot" majmuasining dolzarb muammolari . Toshkent.B.224.
- 3.Umarova M, Hamroqulova X, Tojiboyeva R. "O'qish kitobi" 3-sinf darsligi. B.204.
- 4.Matjonov S, Shojalilov A, G'ulomova X, Sariyev Sh, Dolimov Z. "O'qish kitobi" 4-sinf darsligi. 2017. B.108.
- 5.www.amazon.com
- 6.www.edurtm_uz

